

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**BOSHLANG`ICH va MAKTABGACHA TA'LIM METODIKASI  
KAFEDRASI**

# *KURS ISHI*

*Mavzu: Sinfdan tashqari o`qish darslarida Po`lat*

*Mo`min ijodini o`rganish*

Bajardi: Холбоева М .

Qabul qildi: Саймуратова И.

## **MUNDARIJA**

### **KIRISH**

1. Sinfdan tashqario`qish darslarining maqsad va vazifalari
2. Po`lat Mo`min – bolalar yozuvchisi
3. Sinfdan tashqari o`qish darslarida Po`lat Mo`min ijodini o`rganishning o`rnni va ahamiyati
4. Sinfdan tashqari o`qish darslaridan namunalar

### **XULOSA va METODIK TAVSIYALAR**

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

## KIRISH

Maktab o'quvchini o'qish malakasi bilan qurollantirish bilan bir qatorda kitobni mustaqil o'qiy oladigan, uni tushunadigan, ma'lum bir mavzuga oid kitoblarni tanlay oladigan, gazeta va jurnallarni ham mustaqil o'qiydigan faol kitobxonni tarbiyalaydi. Shu jihatdan sinfdan tashqari o'qish (STO') tarbiyaning asosiy quroli sifatida xizmat qiladi, ko'p narsani bilishga havasni orttiradi.

Sinfdan tashqari o'qish o'quv dasturi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda ko'zda tutiigan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda yaqindan yordam beradi. Buning uchun o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash, ularni oddiy kitobxondan ijodkor kitob-xon darajasiga ko'tarish talab etiladi. O'quvchilarda kitobga havas uyg'otishda har bir bolaga yakka tartibda yondashish, shaxsiy qizi-qishlarini hisobga olish zarur. Bolalarda kitob ustida ishlash malakasini shakllantifish ularda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashning muhim-omilidir. Bunda o'qish uchun ajratilgan soatlardan foydalilaniladi.

Sinfdan tashqari o'qish tanish bo'lмаган mualliflarning kitoblari muqovasi, titul varag'i, kirish so'zi, mundarijasi va suratlariga qarab asarning taxminiy mazmunini aniqlashga o'rgatish vazifasini amalgaoshirishga xizmat qiladi.

Bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, ular-ning bog'Ianishli nutqini o'stirish, adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish sinfdan tashqari o'qish darslarining ham tub mohiyatini tashkil etadi.

Prezidentimiz Islom Karimov mustaqillikka erishibmizki, bizning ezgu niyatimiz – kelajagi buyuk va erkin jamiyat qurish. Bizning strategiyamiz sog`lom avlod tarbiyasiga tayanadi va uni rivojlantirishga qaratilgan, - degan gapni ko'p bora ta'kidlaydilar.

Ha, yurtboshimiz orzu qilganidek yosh avlodni komil insonlar qilib tarbiyalashda kattalar adabiyotining ajralmas bir bo`lagi bo`lgan bolalar adabiyotining, ya'ni oqish darslarining ham ahamiyati kattadir. Bolalar yozuvchilarining turli xil janrdagi asarlarini o`rganish orqali boshlang`ich sinf o'qish darslari o`z oldiga keljak avlodni jismonan baquvvat, ruhan pok, fikran sog`lom, iymon-e'tiqodi butun, bilimi, ma'naviyati yuksak, mard va jasur,

vatanparvar avlodni tarbiyalashdek katta va murakkab vazifani qo`yanligi bilan ajralib turadi.

Kichik yoshdagi o`quvchilar uchun yoziladigan har qanday badiiy asar ularning yosh xususiyatlariga, saviyalariga mos bo`lishi, ular qalbida chuqur o`yfikrlar uyg`otishi, yorqin obrazlar va yuksak g`oyalarga boy bo`lishi, ularni ulkan va porloq ishlarga ilhomlantirishi zarur. Eng muhim, mavzular tushunarli, sodda va qiziqarli tilda yoritilishi lozim.

Faqat chinakam badiiy asarlarga bolalarga kuchli ta'sir ko`rsatib, ana shu yuksak talablarga javob bera oladi. Shu sababli bunday kitoblar pedagogik va psixologik nuqtai nazardan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalar kitobi bu vazifani bajarishda badiiy tilga suyanadi.

Adabiy asarning tili uning g`oyaviy mazmunini aniq va ifodali ochib berish vositasidir. Yaxshi, aniq, ravon, obrazli, boy til bilan yozilgan asar yozuvchining maqsad va fikrlarini kitobxonlarga tez va oson etkazadi. Ravon til bilan yozilgan badiiy asarlar yosh kitobxonning nutqiga ham katta ta'sir ko`rsatadi, so`z boyligini oshiradi.

Bolalar yozuvchilarining eng yaxshi kitoblari yosh avlodni hayotga to`g`ri munosabatda bo`lishga o`rgatadi, ona-diyorimizga, mehnatga muhabbat, zamonamizga sadoqat ruhida tarbiyalaydi, ularni yurtimizning munosib farzandlari bo`lishga chaqiradi.

## **1. Sinfdan tashqari o`qish darslarining maqsad va vazifalari**

STO'ning maqsadi o`qish malakalarini takomillashtirish, kitob tanlay oladigan, muntazam kitob o`qiydigan, o`qilgan kitobni to`g'ri baholay oladigan ongli kitobxonni tarbiyalashdir.

Maktablarda 1959-yildan boshlab maxsus STO` darslari tashkil etilgan. STO` darslari 1-2-sinflarda haftada 1 marta, 3-4-sinfda 2 haftada 1 marta o'tkaziladi. Savod o`rgatish jarayonida esa haftadagi oxirgi alifbe darsining 17—20 daqiqasi ajratiladi. Badiiy va ilmiy-ommabop asarlar mustaqil ravishda va izchil o`qib borilsagina, o`quvchilarining dunyoqarashini shakllantirish va kengaytirishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari o`qish darslarining asosiy vazifasi o`quvchida badiiy kitoblarni o`qishga havas uyg'otish, o`qigan kitoblari yuzasidan kundalik yurita ollshga o`rgatish, bolalar adabiyotining mashhur adib hayoti va ijodi bilan elementar tarzda tanishtirish hisoblanadi.

STO` darslarining **muhim vazifalaridan biri mustaqil o`qish malakalarini tarbiyalash** hisoblanadi. Buning uchun mustaqil bajarish uchun topshiriqlar berish, qiziqarli mashq tiilaridan foydalanish, eng yaxshi insholarni, taqrizlarni, yozuvchi haqida to`plangan ma'lumotlarni o`qitish, „*Tez aytish*”, „*Topishmoglar topish*”, „*Ifodali o`qish*”, »*Maqollar aytish musobaqasi*», „*Ertak to`qish*”, „*BHimdonlar anjumanı*”kabi ko'rik-tanlovlardan tashkil qilish, muayyan mavzular bo'yicha savol-javoblar uyushtirish, o'yin tarzidagi ish turlaridan foydalanish zarur. O`qilgan asarlar yuzasidan suhbatlar o'tkazish, „*Kitob haftaligi*” tashkil etish, asarlar asosida kichik insholar yozishni mashq qilish yaxshi samara beradi.

STO` sinfda o`qish bilan uzviy bog'liq ravishda uyushtiriladi. Sinfda o`qish STO` uchun zarur bo`lgan o`qish malakalarini shakllantiradi, o`quvchilarining o`qigan asarini tushunishga o`rgatadi, lug'atini boyitadi. STO` qiziqarli va o`ziga jalb etadigan faoliyat bo'lib, bolalarning bilim doirasini boyitadi, qiyoslash uchun material beradi. Sinfda o`qish - hayotga tayyorlash vositasi, sinfdan tashqari o`qish esa hayotning o'zidir.

Hozirgi paytda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun sinfdan tashqari o'qishga mo'ljallangan „Kitobim — oftobiin” (1—3-sinflar uchun) nomli qo'llanmalar ham chop etilgan.

STO' darslari o'quvchilarda mustaqil kitob tanlash va o'qish malakalarini shakllantiradi. Mustaqil o'qish malakasini shakllantirish 3-bosqichga bo'linadi:

**I. Tayyorlov bosqichi.** Bu 1 -sinfning savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Unga darsning bir qismi — 17—20 daqiqasi ajratilgani uchun „STO' mashg'uloti” deb yuritiladi. Uning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, o'qituvchi asarni o'zi tanlaydi. asarning kichik hajmda bo'lishiga va boshqa kitob tanlash tamoyillariga e'tibor beradi. Asarni o'qituvchining o'zi o'qib beradi. O'quvchilar asarni eshitishga, eshit-ganlarini idrok etishga, ularga soddagina baho berishga, asar mazmuni bilan sarlavhasining mosligini aniqlashga, asar mazmunini hikoya qilibberishga o'rgatiladi. Bu bosqichda o'quvchilar o'qish gigiyenasi va kitobga qanday munosabatda bo'lish bilan tanishadilar.

**2.Boshlang`ich bosqich.** Bu 1-sinfning 2-yarim yiiliga to'g'ri keladi. Bu bosqichda haftada 1 marta 45 daqiqalik dars uyushtiriladi. Asarni o'qishdan oidin o'quvchilar asar nomi va uning muallifi bilan tanishadilar, rasmlarini tomosha qiladilar, daftarlariga u haqda soddagina qilib asar muallifini va nomini yozadilar. Asar elementar tarzda tahlil qilinadi. Tanlangan asar (kitob) yaxshi o'qiydigan o'quvchiga maxsus tayyorgarlikdan so'ng o'qitiladi. Asarning oson o`qiladigan o'rinalarini bo'sh o'qiydigan o'quvchilarga o'qitish ham mumkin. Bu ularda o'qishga qiziqish uyg'otadi. Bu bosqichda o'quvchilar har xil tezlikda bo'g'inlab o'qiydilar. Shuning uchun o'qituvchi bu jarayonda har bir o'quvchiga individual yondashishi, kichik kitobxonni kitobni mustaqil o'qishga o'rgata borishi lozim.

**3.Asosiy bosqich.** Bu bosqich 2-4-sinflarga to'g'ri keladi. Bu davrda o'quvchilarning o'qish malakalari mustahkamlanadi. Bunda o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qiganlari baholanadi. Baholashda dastur talablariga asoslaniladi: o'qigan kitoblarining sifat o'zlashtirishiga, miqdoriga, o'qigan kitobiga munosabat bildira olishiga e'tibor beriladi. Bunda o'quvchilar muayyan mavzuga doir bir necha

asarlarni o'qib keladilar, ularning ayrim o'rinalarini ifodali o'qib beradilar, o'qigan asarlarini o'zaro taqqoslaydilar.

STO'ning bosqichlari, dastur talablari, tarbiyaviy vazifalari o'quvchilarning qiziqishlari bilan belgilanadi. Masalan, tayyorlov bosqichida kichik hajmdagi asarni o'qituvchi o'qib bersa, o'qilganlar yuzasidan suhbat, qayta hikoyalash o'tkazilsa, boshlang'ich bosqichda butun sinf o'quvchilari bir xil kitob bilan ta'minlanadi, barcha o'quvchilar bitta matn ustida ishlaydilar. Bunda bitta yozuvchi yoki bir mavzudagi asarlar ko'rgazmasi tashkil qilinadi. Asar ichda o'qishga topshirilishi, albomlartayyorlanishi, kinofilm va diafilmlardan parchalar ko'rsatilishi, musiqiy daqiqalar o'tkazilishi hamda asar mazmuni yuzasidan ijodiy rasmlar chizdirilishi ham mumkin. Bu jarayonda kitobni saqlash maqsadida uni yamash, o'rash o'rgatiladi, „*Ertaklar bayrami*”, „*Ifodali o'qish tanlovi*” o'tkaziladi.

Asosiy bosqich yakunida kichik yoshdagi o'quvchilar faol kitobxon uchun zarur bo'lgan yaxshi o'qish ko'nikma va malakalarini egallashlari, eng muhimi, ularning kitob hamda mustaqil o'qishni yaxshi ko'rishlariga erishish juda muhimdir.

Metodikaning vazifalaridan biri STO' uchun kitoblar tanlash, o'qiladigan adabiyotlar ro'yxatini tavsiya qilish, yiilik o'quv rejasi va dars tuzilishi namunalarini ishlab chiqishdir.

Sinfdan tashqari o'qish uchun kitob tanlashda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

**1.Kitob tanlashda tarbiyaviy maqsad ko'zda tutiladi.** Bunda o'quvchilarga vatanimiz o'tmishi, mustaqillik uchun kurash, xalq qahramonlari, xalq turmushi haqidagi, oilada, mакtabda va jamoat joylarida o'zaro munosabatlarda yuzaga keladigan axloqiy muammolar haqidagi, tabiat va uni asrab-avaylash haqidagi kitoblar tavsiya etiladi.

**2.Kitob tanlashda asarlar janri va mavzusining xiima-xilligi e'tiborga olinadi.** Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar, asosan, hikoya-lar, ertaklar, she'rlar, topishmoqlar, maqollarni o'qishga qiziqqanlari uchun shu janrdagi asarlar tanlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

**3.Kitobning o'quvchilar yoshi va saviyasiga mosligi hisobga olinadi.** 1-sinfda kichik hikoya va ertaklarni o'qish tavsiya etilsa, 2-4-sinflarda mavzular doirasi kengaytirilib, kundalik turmushda ro'y berayotgan turli voqealar tasvirlangan asarlar, gazeta va jurnallardagi kichik hajmlli xabariarni o'qish ham tavsiya etilishi mumkin.

**4.Kitob tanlashda o'quvchilarining shaxsiy qiziqishi va mustaqil o'qishi hisobga olinadi.** Bunda o'quvchilar o'ziga qiziqarli bo'Igan o'zbek va xorijiy bolalar adabiyoti yozuvchilarining asarlarini o'zi tanlashi muhim ahamiyatga ega.

**5.Kitob tanlashda mavsumiy tamoyilga amal qilinadi.** Umuman olganda, kitobni to'g'ri tanlash sinfdan tashqari o'qishmuvaqqiyatini ta'minlashniag muhim shartidir.

STO'ga rahbarlikning asosiy shakli maxsus sinfdan tashqari o'qish darslaridir. Bunday darslar erkin dars hisoblanadi. STO' darslarida o'quvchilarining kitobxonlik qiziqishlari, bilim doirasi, estetik taassuroti, badiiy obrazlarni idrok etishi, ijodiy qobiliyati rivojlanadi; faol kitobxonga xos ko'nikma va malakalar shakllanadi.

Sinfdan tashqari o'qish darslari o'quvchilarining faolligini oshirishga qaratiladi, shuning uchun ularning qurilishi juda xilma-xil bo'ladi Har bir dars o'qituvchi va o'quvchining ijodi hisoblanadi; darsda qanchalik xilma-xillikka, hayotiylikka erishilsa, maqsadga erishish oson kechadi.

Shularga qaramay, STO' darslari o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni amalgaga oshirishi uchun ma'lum talablarga bo'ysunadi. Ular quyidagilardir:

1. Har bir darsda o'quvchilar o'qigan kitoblar (asarlar) hisobga olinadi. Ular o'qigan va o'qiyotgan kitoblarini sinfga olib kelib ko'rsatadilar, ikki-uch o'quvchi o'zlari o'qigan kitob haqida gapirib beradi, darsda o'zaro fikr almashish holati yaratiladi (bu holat darsdan tashqari vaqtda ham davom etishi mumkin).

2. Har bir darsda o'qish uchun yangi kitob (asar)lar tavsiya qilinadi. Tavsiya qilish shakllari turlicha bo'lub, ular fikr almashuv, kilobni ko'rsatish, sinfda ko'rgazma tashkil etish, o'quvchilarни qiziqtirish uchun tavsiya qilinadigan

kitobdan biror parchani o'qib berish, rasmlarni ko'rsatish yoki film namoyish etishdan iborat bo'lishi mumkin.

3. Har bir darsda o'quvchilarga asarni yaxlit holda o'qitish mumkin. Agar asar hajmi kattaroq bo'lsa, bu ish ikki-uch dars davomida amalga oshiriladi. Bunda o'quvchilar o'zлari o'qigan kitobdan biror parchani ovoz chiqarib o'qib berishlari mumkin. Bu jarayonda ichida o'qishdan ham, she'r yodlashdan ham, rollarga bo'lib o'qishdan ham foydalaniladi.

4. Har bir darsda o'qilgan asar yuzasidan suhbat metodi orqali tahlil ishlari amalga oshiriladi. Bunda erkin hikoya qilish uchun „Senga asardagi nimalar yoqdi?”, „Bu kitob haqida sen nimalar ayta olasan?” kabi savollar beriladi va o'quvchilarning ijodiy hamda mustaqil qayta hikoyalash malakalari shakllantiriladi.

5. Har bir darsda ma'lum bir yangi kitobxonlik ko'nikmast hosil qilinadi: muallif haqida ma'lumotlar toplash, kitob nomiga qarab u nima haqida ekanligini aytish, o'qilgan asarlar yuzasidan ko'rgazmalar tayyorlash, asarga taqriz yozish, albomlar tayyorlash, kitobxonlik kundaligini yuritish kabi ishlar amalga oshiriladi.

6. Har bir dars kirish suhbat bilan boshlanadi va sinfda o'qish darslarida qo'llanadigan barcha usullardan ijodiy foydalaniladi.

7. Har bir darsda tahlil qilingan asarlar yuzasidan umumlashtiruvchi, yakunlovchi suhbat uyushtiriladi. Umumlashtirishga ko'rgazma ham, albom tuzish ham, rasmlarni tadbiq etish ham yordam beradi.

Sinfdan tashqari o'qishga rahbarlikning **yordamchi shakllari** ham mavjud bo'lib, ular barcha ishlarni izchil uyushtirishni ta'minlaydi, STO' darslari uchun sharoit yaratadi. Bunday shakllarga quyidagilar kiradi:

**1. Kitobni targ'ib qilish.** STO`ga tavsiya qilinadigan asarlar ro'yxati sinfga yoki matabning maxsus joyiga osib qo'yiladi, ular vaqt-i-vaqt bilan yangilab turiladi, to'ldiriladi, ko'rgazmalar tashkil qilinadi. O'qituvchi maxsus suhbatlar uyushtiradi.

**2. Yakka tartibdagi yordam va kundalik tekshiruv.** O'quvchilarning o'qigan kitoblari yuzasidan suhbat uyushtiriladi, o'qilgan kitoblar hisobga

olinadi. Shaxsiy fikrlar aniqlanadi, uy kutubxonalari bilan tanishiladi, ota-onalar bilan suhbat o'tkaziladi.

**3.STO' yuzasidan ommaviy ishlar.** Adabiy ertaklar, viktorinalar, yozuvchilar bilan uchrashuvlar, adabiy ekskursiyalar uyushtiriladi, ular uchun maxsus tayyorgarlik ko'rildi.

**4.Kutubxonaga yozilish.** 1-sinf o'quvchilari o'qituvchining tavsi-yasi bilan kutubxonaga a'zo bo'ladi. Bu jarayonda o'qituvchi va ku-tubxonachi hamkorlikda ish olib borishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

**5.O'quvchilarning o'qiganlarini hisobga o!ish.** Bunda ularning kitobxonlik kundaligidan foydalaniladi. 1-sinf o'quvchilari 2-yarim yillikdan boshlab kitobxonlik kundaligiga yozuvchining ismi, familiyasi va kitob nomini, 2-sinfda esa unga nashr etilgan joyi va yilini qo'shib yozadilar. 3~4-sinflarda o'qigan kitobining qisqacha mazmunini yozib, unga taqriz va o'z mulohazalarini ham qo'shishlari mumkin.

O'quvchilarning o'qigan kitoblari og'zaki tarzda ham hisobga olinadi: ular o'qiganlari yuzasidan sinfdan tashqari o'qish va sinfda o'qish darslarida, yakka tartibdagi suhbatlarda gapirib beradilar.

Sinfdan tashqari o'qish darslarining xususiyatlari, birinchidan, STO' tizimining bosqichlari bilan, ikkinchidan, o'quv vazifalari va dastur bilan, uchinehidan, oldinga qo'yilgan tarbiyaviy vazifalar bilan, to'rtinchidan, o'quvchilarning qiziqishlari bilan belgilanadi.

1-sinfda tayyorlov bosqichida yangi matn o'qituvchi tomonidan o'qib beriladi, boshlang'ich bosqichdagi darslarda yangi kichik hajmli matnni o'quvchilar o'qiydilar.

Keyingi bosqichlarda asar tahliliga doir ishlar kengaytiriladi, o'quvchilar o'qiganlarini taqqoslashga, urnumiashtrishga, xulosalash-ga, qahramonlarni elementar tavsiflashga o'rgatiladi. Bu jarayonda rollarga bo'lib o'qishdan foydaianiladi. Asosiy bosqichda STO' darslari 2-sinfda haftada I marta, 3-4-sinflarda 2 haftada I marta o'tkaziladi. O'quvchilar mustaqil o'qishga o'rgatiladi, ular „G'uncha", „Gulxan", Bilimdon" jurnallari, „Tong yulduzi" gazetasi bilan,

ya'ni bolalar matbuoti bilan tanishtiriladi. Bu bosqichda o'zbek, qardosh va chet el adabiyoti yozuvchilarining turli janrdagi va mavzudagi asarlaridan foydalaniladi. Bir darsga o'quvchilar bir nechta asarlar o'qib kelib, ular haqida o'z fikrlarini aytib beradilar, qahramonlarni tasvirlab, rasm chizadilar. Bu jarayonda yozuvchilar hayoti va ijodiga doir kechalar uyushtiriladi. Shu tarzda adabiyotni sevadigan, mustaqil fikr yiirita oiadigan kitobxon shaxsi shakllantiriladi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarida o'qilgan kitobni muhokama qilish, ijodiy qayta hikoyalash, insenirovka qilish, rasmlar chizish, ifodali o'qish, kitoblar tavsiya qilish usullaridan keng foydalaniladi.

## **2. Po`lat Mo`min – bolalar yozuvchisi**

Bolalarning sevimli shoiri Po`lat Mo`min yoshligidanoq adabiyotga havas qo`ydi. U Toshkent pedagogika bilim yurtidao`qib yurgan vaqtida adabiyot to`garagiga faol qatnashdi. Adabiyotni qunt bilan o`qidi, o`rgandi. O`rta ma'lumot olgach, hozirgi Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universitetining o`zbek tili va adabiyoti fakultetiga o`qishga kirib, uni muvaffaqiyatli tamomladi, aspiranturada o`qidi, maktablarda o`qituvchilik qildi. So`ngra O`zbekiston davlat nashriyotida ishladi. Po`lat Mo`min qayerda ishlamasin, doimo adabiyotga muhabbat bilan qaradi, uni qunt bilan mutolaa qildi, o`rgandi. Kichik-kichik she`rlar yoza boshladi. 1944- yilda „Bahorga sayohat“ nomli birinchi she`ri bosilib chiqdi. Birinchi she`rlar to`plami esa 1949- yilda „Sayrang, qushlar“ nomi bilan nashr etildi. Kitob adabiy jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi. To`plamdan munosib o`rin olgan „Sayrang, qushlar“, „Obod o`lkam“, „Haykal“, „Alla va Jalla“ (ertak) singari asarlari mazmundorligi, qiziqlarliligi bilan kitobxonlarning e'tiborini o`ziga jalb etdi.

Bolalarga atab ijod etish, bu sohada muvaffaqiyat qozonishchun qobiliyat va istakning o`zagina yetmaydi. Belinskiy ta`rifibilan aytganda, bolalar yozuvchisi bo`lib tug`ilish kerak. Bu bolalaryozuvchisi mohir pedagoglarday bola qalbining bilimdoni bo`lsin, nozik ta`b egasi, go`dak tabiat va psixologiyasining bilimdoni, mehribon va bolajon, kamtarin va samimi, bolalarcha soddadilham dono bo`lsin, degan mazmunni taqozo etadi. Biz Po`lat Mo`min ijodida ana shunday oliyanob xususiyatlar mujassamligini his etamiz. Shoir butun umrini bolalar orasida o`tkazib kelmoqda.

U o`z yosh kitobxonlarining o`y-fikrlarini, orzu-umidlarini yaqindan biladi. Ularning dillaridagini tillarga chiqara biladi. Shoirning tinimsiz ijodiy mehnati tufayli „Hunardan unar“, „To`g`ri o`sgran gul bo`lar“, „Aql qayerda bo`lar?“, „O`rinbosarlar“, „Oltin nay“, „Bir yarim Karim“, „Endi adashmaydi“, „Barcha

bola do'st bo'lsa“, „Rahmatga rahmat“, „Gazpolvon ertak aytar“, „Chang yutar botir“, „Do'sting qancha ko'p bo'lsa“, „Oftob vaodob“, „Yaxshilarga o'xshasam“, „Bu juda soz“, „Eson va omon“, „Oltmish olti oltin qo'l“, „Ustozlar izidan“, „Bolalarining baxtikulgan“, „Bir yuz bir oltin qo'l“ she'riy to'plamlari: „Chanoqvoybilan Qovoqvoy“, „Bahodirning botirligi“, „Oq fil yo'qoldi“, „Suqatoy-konfetvoy“, „Ona bolam deydi“ kabi ertaklari, pyesalariyuzaga keldi. Bu kitoblarga kirgan eng yaxshi she'r va qo'shiqlari, doston va ertaklari bolalar adabiyoti xazinasiga munosib hissa bo'lib qo'shildi, uni boyitdi. Bu asarlardan bir qanchasi jahon xalqlaritillariga tarjima qilinganki, bu faqat shoirning emas, balki

o'zbek bolalar adabiyotining ham yutug'i, obro'si hisoblanadi. Kimda-kim a'lo va yaxshi baholarga o'qish uchun astoydilintilsa, harakat qilsa, zahmat cheksa, shubhasiz, u maqsadgaerishadi, samarali bilim oladi. Agar bu intilish jismoniy mehnatbilan qo'shib olib borilsa, yanada muvaffaqiyatli bo'ladi. Po'latMo'min ta'lim va jismoniy mehnatga bag'ishlangan she'rlaridamehnat va mehnatsevar bolalar haqida fikr yuritadi. Ba'zanishyoqmas, dangasa, yalqov o'quvchilarni tanqid qiladi, ularning kamchiliklarini ochib tashlaydi. Masalan, „Besh oldim, besh!“ degan she'rini olaylik. Asar qahramoni uzoq vaqt past bahogao'qib yuradi, fanlarni ko'ngildagidek o'zlashtira olmaganligidando'stlari, ota-onasi va o'qituvchilar oldida o'zini gunohkordekhis qiladi. O'quvchi bunday qiyin ahvoldan faqat ko'proqdars tayyorlashi, kitob o'qishi bilan qutulib ketishi mumkinligigaham ishonmaydi. Nima bo'ladi-yu, bir kuni u uygaberilgan topshiriqni qayta-qayta o'qiydi, dars va kitobdan boshqahech narsani o'ylamaslikka harakat qiladi. Natijada ertasi kuni, „besh“ baho oladi. Shu-shu bola kitobni sevib qoladi. Qunt qilish, berilgan topshiriq ustida ko'p mehnat qilish lozimligini tushunibyetadi. O'zidagi bunday ijobiy o'zgarishdan xursand bo'ladi.

Boladagi bu quvonch va hayajonni shoir yosh kitobxon ruhiyatigamos ravishda chizib beradi:

Shunday qilib, do'stlarim,

Aytsam yurak so‘zlarim,

Yurishib qoldi ishim,

Ko‘payib ketdi „, besh“im.

Bolalar shoirining „,Tuganmas kon“, „O‘qituvchi bahoqo‘yganda“, „Ko‘chalarni to‘ldirib“, „Sizga nima bo‘ldi, o‘g‘ilbolalar?“, „Yuqumli ikkilar“, „Bilsa bo‘lar ekan-ku!“, „Sentabrdankim sevinar?“ kabi she’rlari ham a’lo va yaxshi o‘qish uchunintilayotgan, harakat qilayotgan bolalar to‘g‘risida yozilgandir.Ba’zan o‘quvchi-yoshlar orasida mug‘ombir-u pismiq bolalarham topilib qoladi. Shoirning „Qo‘l ko‘tarib qo‘lga tushdi“ deganasari ana shunday bolalarga bag‘ishlangan. Asar qahramoni aslidadangasa, ishyoqmas, qoloq o‘quvchi.U buni o‘qituvchisigasezdirmaslik uchun har kuni dars paytida „Men aytaman, debko‘taradi qo‘l“. O‘qituvchi esa bolaning bunday mug‘ombirligini sezmaydi, u darsni yaxshi o‘zlashtiribdi, deb undan so‘ramaydi.Oxiri bir kuni „Mayli, ayta qol“ deydi. Shunda haligi bola savolgajavob bera olmay, o‘qituvchi va o‘rtoqlari oldida izza bo‘ladi:

Darvozasiga

Urilganday gol

Qo‘lga tushgandi

U ko‘tarib qo‘l.

Shoir she’rlarida kichkintoylarning jismoniy ishga intilishlariham yaxshi ochib beriladi. Uning „Oftob chiqdi olamga“, „Yerchopildi - javob topildi“ she’rlari fikrimizning dalilidir. „Oftobchiqdi olamga“ asarida u xalq og‘zaki ijodidan unumli foydalangan.She’rda bolalarning harakati, urinishi, kattalar ishiga ko‘maklashishinihoyatda ta’sirli va shirali ifodalangan.Po‘lat Mo‘min haqiqatan ham oftob - bu olam-olamquvonch, shodlik, mehnat, yashash, yasharish ramzi ekanliginikichkintoy bolalar timsoli orqali yanada yorqinroq, ta’sirliroq aks

ettirishga harakat qiladi:

Oftob chiqdi olamga,  
Chopib bordim dalamga,  
Dadam ko‘chat ekardi,  
Salom berdim dadamga.

Po‘lat Mo‘minning „Yer chopildi - javob topildi“ asaridamehnatdan zavqlanish tuyg‘usi yorqin ifodalangan. Asar qahramonidastlab uyga berilgan topshiriq -misollarni ishlay olmaydi. Shunda u jismoniy mehnat qilishga kirishadi - yer chopadi, terlab-pishadi. Natijada ko‘ngli yorishadi, fikri oydinlashadi. Uygaberilgan misollarni ham yechadi, yerni ham chopadi.

Barcha savolga

Javob topildi.

Shu bahonada

Yer ham chopildi.

Po‘lat Mo‘minning „Besh baho qo‘shig‘i“, „Xursandmisiz?, Xursandmiz!“, „Sentabrim“, „Uch baho - puch baho“ singariqo‘shiqlari o‘qish, ilmli bo‘lish mavzusiga bag‘ishlangan. O‘z ustidako‘p ishlash, kitob o‘qish, dars qoldirmaslik „a’lo“ o‘qishningmustahkam noydevori ekanligini shoir „Uch baho –puch baho“ qo‘shig‘ida yoritib beradi. Onalarni, keksalarni hurmat qilish,e’zozlash („Achom-achom buvijon“, „Mehribonim onajon!“), o‘zaro hurmat, do‘slikni joyiga qo‘yish („Bir jahon bolalarmiz“), har bir shodiyona, bayramlarni zo‘r tayyorgarlik bilan kutibolish, chevarlik kasbini bolalikdan bilib borish („Ko‘ylagim“) mavzulariga bag‘ishlab shoir o‘nlab qo‘shiqlar yaratganki, bunday qo‘shiqlar bolalarning jondilidir. Po‘lat Mo‘min axloq va odob kuychisi hisoblanadi. Bu masalako‘proq uning „Birovlar“, „Bir odamning afsusi“, „So‘zishunaqa - o‘zi shunaqa“,

„Behzodni bilasizmi?“, „Ulg‘aydimiaqlingiz?“, „Qo‘ling oltin - yo‘ling oltin“, „Birinchi bo‘l,birinchi!“ kabi she’r va qo‘sishlarida ochib beriladi.Po‘lat Mo‘min „Alla bilan Jalla“, „Ziyrak fil va ziqna baqqol“, „Har kimniki o‘ziga, oy ko‘rinar ko‘ziga“, „Unutgan o‘g‘il“, „Oltin nay“, „Dono bola“, „Bilganni qari -bilmaydi pari“ singariertak, dostonlarida xalq og‘zaki ijodi namunalaridan unumlifoydalangani ko‘rinib turadi.

### **3. Sinfdan tashqari o`qish darslarida Po`lat Mo`min ijodini o`rganishning o`rni va ahamiyatি**

Boshlang`ich sinf o`qish darsliklarida yozuvchining «Vatanjonim vatanim» she'ri (2-sinf), «Mustaqillik ahillikdan» she'ri (3-sinf) o`rin olgan.

Po`lat Mo`min ijodining mohiyati bolalarga hayot yo`lini belgilab berish, o`zi tug`ilib o`sigan ona makonini sevish, ardoqlash va unga fidoiy insonlar bo`lib etishish, Vatanining istiqboli haqida kuylashga bag`ishlanadi. “Vatanjonim, vatanim” she'rida aynan shunday g`oyalar aks ettirilgan.

Yozuvchi butun umrini bolalarga atab ijod etishga, ular qalbida Vatanga muhabbat, samimiylit, kamtarlik, jo`shqinlik kabi fazilatlarni uyg`otishga baxsh etdi. Jumladan, uning “Mustaqillik ahillikdan” she'ri aynan yosh kitobxonga atab yozilgan.

Mustaqillik deganin,

Bilib qo`y ne ekanin

Eng avval mustaqillik –

Bo`lmoq puxta, ahillik

Bu xil sifat insonda

Fazilatdir har onda

Tanib ol xaq-huquqing

Saqlagil odob-xulqing

Yozuvchi bolalarga mustaqillik ne ekanligini sodda misollar orqali tushuntirib bergan. Mustaqillik bu – sizning o`zaro ahilligingiz, puxtaligingiz, odobi va axloqli bo`lishingiz deb ta'kidlaydi. Ushbu oliy fazilatlarni o`zida

mujassam qilgan bola ona Vatan mustaqilligiga hissa qo`sha olgan vatanparvar o`quvchidir deb ta'riflaydi.

Sevgil ona yurtingni.

Ketkazma lafz-burdingni

Mag`rur tutgil boshingni,

Oldirmagil oshingni

Mustaqillik dadillik

Tenglik ila ahillik

Ochiq gap, ko`pdır sharti

Bo`l eng avval el mardi!

Ona yurtini sevish, unga fidoiy, mard o`gil-qiz bo`lib kamolga etish, uning tinchi uchun hissa qo`shish, shu yurtda tug`ilgan har bir bola uchun burch ekanligi va bu yo`lda dadil qadam tashlash, vatanning haqiqiy fidoysi bo`lib voyaga etish kerakligi ta'kidlab o`tilgan.

Po`lat Mo`min dostonchi shoир sifatida ham juda qadrlidir.Uning „Oltin nokli bog“, „Ko`cha — ko`pchilik uchun“, „Eh,rosa shirin ekan!“, „Xolning jiyron velosi pedi“, „Ko`ngil istaryaxshilik“ degan poemalari allaqachon kichkintoylarning sevimliasarlariga aylanib ketgan. Shoирning dostonlarida bolalar o`rtasidagi do`slik, birodarlik, o`qituvchi va jonajon muktabgamuhabbat, birlik, baynalmilallik kabi masalalar ilgari surilgan.Bolalar hayotida sodir bo`ladigan yutuq va kamchiliklar badiiybo`yoqlarda, qiziqarli lavhalarda chizib berilgan. Bir so`z bilanaytganda: muktab o`quvchilarining hayoti zavq-shavq bilantasvirlanadi.Po`lat Mo`min o`zining ertak-pyesalari bilan ham yoshkitobxonlar o`rtasida shuhrat qozondi. Uning „Qovoqvoy bilanChanoqvoy“, „Suqatoy-konfetvoy“, „Ona bolam deydi, bola onamdeydi“ nomli fantastik ertak-

pyesalari uzoq vaqtlardan beribolalarining quvonchiga quvonch qo'shib kelayotir.Qovoqvoyning dangasaligi, lapashangligi, erkaligi, tantiqliginio'tkir kulgi ostiga oluvchi va Chanoqvoyning bilimdonligi,donoligi va mehribon do'stligini ulug'lovchi „Qovoqvoy bilanChanoqvoy“ bolalarni yaxshilikka da'vat etadi.

Bu asardagi yaxshi fazilatlar dramaturgning boshqa bir ertak-pyesasi „Suqatoy-konfetvoy“da ham ko'ringan. Õematika va g'oyaviyyo'nalishi, uslubi jihatidan bu ikki asar bir-biriga yaqin.Unda ham ilm, odob, halollik va mehnatsevarlik ulug'lanadi. Voqeabilim xola, Janjal xola, Qurt o'rtaсидagi kurash asosida rivojlanadi.Po'lat Mo'minning butun e'tibori, ijodining mohiyati bolalarga pokiza hayot yo'lini ko'rsatib berishga intilishdan iborat:Aql, Odob, Fan yo'li,

Yo'llarning eng ma'quli.

Kimki yursa uch yo'ldan,

Ishi keladi o'ngdan.

Yo'llar eltar maktabga,

Yetkazadi maqsadga.

Bugina emas, bolalar Po'lat Mo'minning o'nlab topishmoqlariniham sevib o'qib o'rganadilar va zehnlarini charxlaydilar.

#### **4. Sinfdan tashqari o`qish darslaridan namunalar**

##### **1-sinfda (tayyorlov bosqichi) STO' darsi.**

**Mavzu:** Cho'pon yigit Shiroq.

**Darsning maqsadi:**

- a) afsonaviy qahramonlar haqida ma'lumot berish;
- b) o'quvchilarda vatan tushunchasini, vatanparvarlik tuyg'u-sini tarbiyalash.

**Darsning metodi:** suhbat.

**Darsning jahozi:** asar mazmunini yorituvchi rasmlar.

**Darsning borishi**

**1,Kirish suhbat.**

O'quvchilardan vatanini dushmanidan asragan qahramonlardan kimlarni bilishlari so'raladi. To'maris, Jaloliddin Manguberdi, Najmid-din Kubro nomlari sanalib, Shiroq degan qahramon ham o'tganligini, uning qahramonligi haqida xalqimiz, „Cho'pon yigit Shiroq" degan afsona yaratgani aytildi.

**2,,Cho'pon yigit Shiroq" afsonasi o'qib beriladi.**

**3,Afsona yuzasidan dastlabki suhbat o'tkaziladi:** Afsona sizga yoqdimi?

Unda kimning qahramonligi hikoya qilib berilgan? • Shiroq nima uchun xanjari bilan burni, quloqlarini kesadi? " Keyin Shiroq kimning oldiga boradi? U shoh Doroga nima deydi?

Shiroq Dora qo'shinlarini qayerga olib boradi?

- Shiroq nima deb hayqiradi?

O'quvchilar javobi umumlashtirilib, vatanni sevish, uning tinchligi uchun kurashish kerakligi ta'kidlanadi.

**4.Asarga ishlangan rasmlar ko'rsatiladi.** Bu jarayonda asar mazmuni yuzasidan rasjnlarga bog`lab qisqacha suhbat uyushtiriladi.

**5.Shiroq rasmini uyda chizib kelish topshirig'i beriladi.** O'quvchilarga ota-onalaridan qahramonlar haqida ertak, hikoya bilib ke-lishlari va ota-onalariga Shiroq haqida gapirtb berishlari aytildi.

## **2-sinfda (boshlang'ich bosqich) STO' darsi**

### **Mavzu: Tabiat - mening uyim**

**Darsning maqsadi:** .she'r mazmuni bilan tanishtirish va tabiat haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarni **rivojlantirish**, she'r o'qish sifatlarini takomillashtirish. tabiatga **mehr-muhabbat** hissini kuchaytirish.

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi.

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish.

**Dars jahozi:** tabiat manzarasi tasvirlangan plakat, rasmlar, qiish-larning rasmlari.

### **Darsning borishi (.Tashkiliy qism.**

O'quvchilaming uyda o'qib kelgan asarlari so'raladi.Olib kelgan kiloblari ko'rib chiqiladi.

Bir necha o'quvchiga «**Tabiat—mening uyim**»she'ri 4 qatordan yod ayttiriladi.

Dalalarni aylansam,

Uzoq xayolga botsam,

Chigirtkalar qo'shig'in

O'tloqda tinglab yotsam.

Tabiat - mening uyim,

Tabiat — jonimdajon.

Shivirlayin men unga

Va onamga:— Onajon!

Shundanmi ko'ksim og'rir

Zaharlansa ona yer. Tabiat - mening uyim,

Tabiat — eng go'zal she'r.

Shivirlasam giyohga

Hapqirgancha: - Ey ko'kat,

Nega keldim dunyoga,

Yashamoq sirin o'rgat?!

Toshni yorgan giyohlar Sabotdan dars o'qisin.

Oy cho'milgan daryolar

Bolaga she'r to'qisin.

Uchadi bola tomon

Shu sabab mening so'zim:

— Tabiat —jonimdañon,

Tabiat - mening uyim.

**She'r yuzasidan suhbat uyushtiriladi:**

- She'r nima haqida ekan?
  - Tabiat, shoirning uyi ekanligi haqida ekan.
  - Tabiat yana kimlarning uyi? Nima uchun?
  - Tabiat mening ham uyimdir. Men shu tabiat qo'ynida tug'ildim, ulg'aydim.
  - Miraziz, tabiat sening ham uyingmi?
  - Tabiat mening ham uyimdir. Negaki men ham shu tabiat qo'ynida yashayman, tabiat qo'ynida o'sgan mevalardan iste'mol qilaman.
  - Bolalar, hozir o'rtoqlaringiz o'qigan she'rning muallifi kim? U nimani kuylayapti?
  - Bu she'r X. Davronning „Tabiat — mening uyim" she'ri.
  - She'rda shoir „dalalarni aylanaman, chigirtkalar qo'shig'ini eshi-taman, bulbullarni shod qilsarn, o't bilan suhbatlashsam, mushukni sut bilan mehmon qilsam, xayron bo'l mang. Ular mening do'stlarim.Ular biian ko'nglim xush.Tabiat mening uyimdir", — deb aytyapti. (1-o'quvchining javobi)
  - „Mening tornirimga tutash o't ildizi, tunlari oy va yulduzlari daftaramni yoritadi. Ona yer zaharlansa, ko'ksim og'riydi. Sen uni asra, mangu qolsin, o'lmasin", — deyapti. (2-o'quvchining javobi)
- Hurmatli, o'quvchilar! Demak, biz tanishgan she'rimizda tabiat kuylangan ekan.Tabiat bizning ikkinchi onamiz. Chunki biz onamiz va tabiat quchog'ida yashaymiz. Shuning uchun ham biz uni „Ona tabiat" deb ataymiz. Biz lining bag'ridagi o'simliklarni, qushlarni, hayvonlarni, dengiz-u ko'llarni va boshqa boyliklarni asrashimiz, zozlashimiz kerak. Tabiat insonga birgina toza stiv, havo, oziq-ovqat, Kiyim-kechakkina emas, sog'iik, a'lo kayfiyat ham beradi.
- Bolalar tabiatimizni qushlarsiz tasawiir qila olmaymiz. Ular ta-biatning nodir va g'alati jonivorlaridan biridir. Qushiar zararkunanda hasharotlarni yeb. kishilarga

foyda keltiradi va estetik zavq baxsh etadi. Siz ularning sayrashidan olam-olam zavq olasiz. Masalan, bulbul, sa'va va boshq. (Shu o'rinda qushlarning rasmi ko'rsatiladi va „Bahor valsi" kuyi eshittiriladi).

- Hasharotlardan kapaiak va ninachilar tabiatimizning jonli beza-gidir. Kapalaklar chiroyi bilan o'ziga maftun etadi. Gullar chamani uzra qanot qoqib, hayot qo'shig'ini kuylashadi. Lekin hozirgi kunda ularning turlari kamayib ketgan. Buni hamisha yodda tuting. Ularni asrang, ermakka kapaiak tutmang. (Rasm ko'rsatiladi)
- Bizning hayotimizda o'simliklar ham katta o'rinni tutadi. Ayniqsa, yalpiz, qoqio't, otquloq kabi ko'katlarning inson salomatligini tiklashda o'rni kattadir.
- Bolalar bizning hayotimizda yana bir muhim narsa obihayotdir. Biz suvsiz **hayotimizni** tasawur qila olmaymiz. Mana shu suv ham tabiat qo'yndidan inju bo'lib oqadi. Suvni ham asrashimiz kerak. Bu-ning uchun daryolarni, ko'llarni, irmoqlarni saqlamog'imiz darker. Turmushda, kundalik hayotimizda suvlarni tcjab ishlating!
- Xulosa qilib aytganda, tabiatimizning bundan ham chiroyli, obod bo'lishi siz bilan bizning qo'limizda ekan.

O'quvchilarning tabiat haqida yod olgan she'rlaridan, topishmoq va maqollardan ayttiriladi:

Dengiz-u daryoda yashar,

Asosan ko'klarda kezar.

Zeriksa bormi, osmondan

Zamin uzra qaytib tushar. (Suv)

Ikki yaproq bir tanda,

Kezar gulzor chamanda. (Kapalak)

Shu o'rinda shoirlarning tabiat haqidagi har xil kitoblari ko'rgazmasini uyushtirish ham mumkin.

Uyga vazifa qilib gullar haqida she'rlardan yod olib kelish beriladi.

Keyingi darsda „Gullar aytishuvi" uyushtiriladi.

Dars yakunlanadi.

## Xulosa va metodik tavsiyalar

Biz yuqorida «Sinfdan tashqari o`qish darslarida Po`lat Mo`min ijodini o`rganish» haqida fikr yuritdik. Shu o`rinda bola tarbiyasi, bola kamolotida badiiy asarlarni o`rganish qanday zarurat tug`diradi? – degan savolning tug`ilishi tabiiy.

O`qish darslarida o`rganiladigan badiiy asarlarda el yurtni ko`z qorachig`idan avaylab saqllovchi ajoyib qahramonlar ulug`lanadi, ayollar haq-huquqi himoya qilinadi, uzoq masofalar yaqin qilinadi, kishilar xarakteridagi yaramas odatlar, no'maqul illatlar tanqid ostida olinadi, mardlik, epchillik, dovyuraklik, mehnatsevarlik, halollik, vafodorlik, saxiylik g`oyalari ulug`lanadi. Badiiy asarlar yosh avlodni hayotga to`gri munosabatda bo`lishga chaqiradi. Biroq asardagi g`oyaviy mazmuni o`quvchiga etarli darajada etkazib berish bu o`qituvchi mahoratiga bog`liqdir.

Xullas, yuqoridagi mavzuga xulosa yasaydigan bo`lsak, sinfdan tashqari o`qish darslarida yozuvchilar ijodini o`rganish deganda, avvalo o`rganilayotgan badiiy asarni tahlil qilishda qanday yo`llardan foydalanishni tushunishimiz kerak. Demak, sinfdan tashqari o`qish darslarida yozuvchilar ijodini o`rganish, o`rganilayotgan badiiy asarni tahlil qilish o`quvchilarda badiiy adabiyotga qiziqish uyg`otadi. O`quvchilar dars jarayonlarida faqat o`qish kitoblari bilan chegaralanib qolmasdan, balki badiiy adabiyotni ko`proq o`qitishga o`qituvchi bosh bo`lib jalb qilish kerak. Badiiy adabiyot bolani mustaqil fikr yuritishga, hayotdan axloqiy va estetik zavq olishga o`rgatadi.

O`qituvchi dars jarayonlarida yozuvchilar ijodini o`rgatishning shunday yo`llarini tanlash kerakki, bolada badiiy asarga bo`lgan qiziqish kuchaysin. Badiiy asar birinchi navbatda o`quvchi yoshiga mos bo`lishi kerak, bunda ularning individual xususiyatlarni hisobga olish zarur.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, sinfdan tashqari o`qish darslari bo`yicha biz quyidagi tavsiyalarni bermoqchimiz:

- asar mazmunini tahlil qilishda to`gri, tez, ongli, ifodali o`qishga etibor qaratilsa.

- o`quvchilarning hayotiy tajribasiga tanish, asar mazmunini ongli tushunib o`qishga davat etish.

- asarni tahlil qilish jarayonida o`qituvchi o`quvchilarga emotsional ta'siriga e'tiborini qaratish.

- o`qish kitobini tahlil qilish ifodali o`qish - asosiy omil ekanligini qayd qilish.

- asar mazmunini tahlilqilishda ZPT elementlaridan foydalanish.

- dars jarayonlarida asar mazmunini tahlil qilishda turli usul, vositalardan, badiiy tasvir vositalaridan foydalanish va lug`at ustida ishlash.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. T., Ma`naviyat. 2008.
2. Qosimova K. Ona tili o`qitish metodikasi. T., Nosir. 2009.
3. G`ulomov A. Ona tili o`qitish printsiplari va metodlari. T., O`qituvchi. 1992.
4. Gafforova T., Sh. Nurullaeva, O. Haydarova. Boshlang`ich sinflar uchun ona tili va o`qishdan didaktik materiallar. T., 2004. 3-77 b.
5. Husanboeva Q. Adabiy ta`limda mustaqil fikrlashga o`rgatish asoslari. T. O`qituvchi, 2003.
6. Husanboeva Q. Tahlil – adabiyotni anglash yo`li. T., Muharrir. 2013.
7. Gafforova T., Sh. Nurullaeva. O`qish kitobi. Umumiyl o`rta ta`lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. T., Sharq. 2013.
8. Umarova M. va boshqalar. O`qish kitobi. Umumiyl o`rta ta`lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. 2-nashri. T., O`qituvchi. 2014.
9. Matchonov S. va boshqalar. O`qish kitobi. Umumiyl o`rta ta`lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. 5-nashri. T., Yangiyo`l poligraf servis. 2015.

## **Internet materiallari:**

1. <http://bolalar.sarkor.uz>-bolalar ommabop informatsion sahifasi. Bolalarga foydali va qiziqarli bo`lgan turli ma'lumotlar keltirilgan .
2. <http://www.referat.uz>-Turli fanlardan referatlar to`plamiga boy sahifa. O`quvchilarga juda foydali ma'lumotlar keltirilgan.
3. <http://www.online.bi>-Informatsion sahifa bo`lib, unda deyarli ixtiyoriy mavzudagi ma'lumotlarni topishingiz mumkin.